



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 15 - iyul

VI-36-1-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumani hokimining 2021-yil 8-iyuldagi 9-7-93-Q/21-sonli “Bulung'ur tumani hokimligi ayrim apparat hodimlarining oylik maoshlariga ustamalar belgilash to'g'risida”gi qarorini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 73-moddalari, Mehnat kodeksining 153-moddasi, va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 15-16-aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda bergan topshiriqlari bo'yicha 20-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Bulung'ur tumani hokimining 2021-yil 8-iyuldagi 9-7-93-Q/21-sonli “Bulung'ur tumani hokimligi ayrim apparat hodimlarining oylik maoshlariga ustamalar belgilash to'g'risida”gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bulung'ur tumani hokimining 2021-yil 8-iyuldagi 9-7-93-Q/21-sonli “Bulung'ur tumani hokimligi ayrim apparat hodimlarining oylik maoshlariga ustamalar belgilash to'g'risida”gi qarori tasdiqlansin.

2. Bulung'ur tumani hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari, tuman hokimligi tashkiliy-nazorat guruhi yetakchi mutaxassisi, tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (tuman hokimining matbuot kotibi), tuman hokimligi umumiy bo'lim mudiri, tuman hokimligi umumiy bo'lim mutaxassisi, tuman hokimligi ish yurituvchisi va Bosh yuriskonsulti lavozimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning lavozim maoshlariga 2021-yil 1-iyuldan har oyda ikki yuz foiz (200%) miqdorda

ustama haqlari belgilansin.

3.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (J.Narziyev), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (E.Niyozov)ga nomlari keltirilgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan tuman hokimligi apparat hodimlariga to‘lanadigan har oylik ustamalar uchun zarur mablag‘larni daromadlar prognoz rejasining oshirib bajarigan qismidan o‘rnatilgan tartibda ajratilishini ta‘minlasin.

4.Yuqorida nomlari keltirilgan tuman hokimligi apparat hodimlariga belgilangan ustamalarni har oyda qo‘shgan holda hisoblash tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Egamberdiyev)ga yuklatilsin.

5.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



Б.Бахрамов